



BADIIY NASRDA EKZISTENSIAL INQIROZ VA TANLOV MUAMMOSI: YEVIROPA ADABIYOTSHUNOSLIGIDA NAZARIY TALQINLAR

Abdimurodova Muxlisa Alisher qizi,

Mustaqil izlanuvchi.

muxlisaabdimurodova@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1817>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 50

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ekzistensializm, ekzistensial inqiroz, tanlov muammosi, Yevropa adabiyotshunosligi, absurd, begonalashuv, mas'uliyat, Jean-Paul Sartre, Albert Camus, narrativ poetika

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu ilmiy maqolada XX asr Yevropa badiiy nasrida ekzistensial inqiroz va tanlov muammosining paydo bo'lishi, uning nazariy-falsafiy asoslari hamda poetik xususiyatlari adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Soren Kierkegaard, Jean-Paul Sartre, Albert Camus va Martin Xaydigger kabi mutafakkirlarning falsafiy konsepsiyalari badiiy matn strukturasi bilan qiyosiy o'rganilgan. Maqolada insonning o'zligini anglash jarayonidagi ruhiy iztiroblari, begonalashuv hodisasi, absurd kontsepsiyasi va fojiaiy tanlov masalasi adabiy kategoriya sifatida asoslab berilgan. Narrativ strategiyalar, "anglash oqimi" hamda ichki monologlarning badiiy funksiyasi o'rganilib, zamonaviy nasrdagi inson konsepsiyasining Yevropa adabiy an'alaridagi nazriy talqinlari umumlashtiriladi. Shuningdek, maqolada ekzistensial inqirozning badiiy obraz yaratish, konfliktni tashkil etish va narrativ struktura shakllanishidagi o'rni ochib beriladi. Qahramonning ichki kechinmalari, qaror qabul qilish jarayoni va tashqi muhit bilan munosabati o'rtasidagi bog'liqlik asosida ekzistensial holatlarning poetik mexanizmlari aniqlanadi. Tadqiqotda Yevropa nasrida shakllangan ushbu badiiy tamoyillarning keyingi adabiy jarayonlarga ta'siri hamda inson konsepsiyasini yangicha talqin etishdagi ahamiyati umumlashtiriladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 50

KEYWORDS

existentialism, existential crisis, problem of choice, European literary studies, absurd, alienation, responsibility, Jean-Paul Sartre, Albert Camus, narrative poetics

ANNOTATION

This scientific article analyzes the emergence of the existential crisis and the problem of choice in XX century European prose fiction, along with their theoretical and philosophical foundations and poetic characteristics from a literary perspective. The study comparatively examines the philosophical concepts of thinkers such as Søren Kierkegaard, Jean-Paul Sartre, Albert Camus, and Martin Heidegger alongside the structure of literary texts. Psychological suffering during the self-realization process, the phenomenon of alienation, the concept of the absurd, and tragic choices are substantiated as key literary categories. By analyzing narrative strategies, the stream of consciousness, and the functional role of internal monologues, the article generalizes theoretical interpretations of the human condition in modern prose within European literary traditions. The article also examines the role of existential crisis in shaping literary characterization, organizing conflict, and developing narrative structure. The relationship between the protagonist's inner experiences, decision-making process, and interaction with the external environment is analyzed to identify the poetic mechanisms through which existential states are represented. Particular attention is given to the influence of these artistic principles on subsequent literary developments and their significance in reinterpreting the concept of the human being within modern prose.

Kirish

XX asr Yevropa jamiyati va madaniyati jiddiy sotsio-kulturniy evrilishlar davrini boshdan kechirdi. Ikki jahon urushining fojiaiy oqibatlarini, toptalgan insoniy qadriyatlar, texnokratiya va urbanizatsiyaning shiddatli rivoji insoniyatni chukur ma'naviy va ontologik (borliqlik) botqoqqa olib keldi. An'anaviy din, falsafa va klassik gumanizm taqdim etgan ko'plab doimiy ma'no-mazmunlar yemirilgan bir sharoitda, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyat keskinlashdi. Bu holat Yevropa adabiyotida mutlaqo yangicha badiiy va falsafiy tafakkur yo'nalishi ekzistensializmning shakllanishini va adabiy yo'nalish sifatida mustahkamlanishini ta'minladi.

Ekzistensial nasr shunchaki jamiyatdagi illatlarni yoki ijtimoiy munosabatlarni tasvirlash bilan cheklanmadi. U inson mavjudligining asl ma'nosini, uning ruhiy iztiroblarini, tanlov erkinligini hamda yolg'izlik fojiasini tadqiq qilishni markaziy obyekt qilib oldi. Mazkur adabiyotning diqqat markazida ekzistensial inqiroz (existential crisis) va insonning ushbu inqirozdan chiqish vositasi bo'lgan tanlov muammosi (problem of choice) turadi.

Yevropa adabiyotshunosligida ekzistensial inqiroz insonning o'z mavjudligidagi ma'no va maqsadsizlikni anglab yetishi, ilgari hayotiy mezonlarining asossiz ekanini his qilishi va shu orqali mutlaq yolg'izlik, chorasizlik holatiga tushishi sifatida baholanadi. Tanlov muammosi esa ushbu inqiroz nuqtasida paydo bo'ladigan, inson taqdirini va o'zligini shakllantiruvchi yagona fojiaiy mas'uliyatdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi Yevropa adabiyotshunosligi va falsafasining nazriy asoslariga tayanib, badiiy nasrda ekzistensial inqiroz va tanlov muammosining poetik va strukturaviy xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Ekzistensializmning dastlabki nazariy asoslarini shakllantirishda Soren Kierkegaardning qarashlari muhim o'rin tutadi. Uning tadqiqotlarida insonning qo'rquv, umidsizlik, ichki ziddiyat va tanlov holatlari markaziy masala sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, insonning o'z mavjudligi haqida o'ylashi va tanlov orqali o'z hayotiy yo'lini belgilashi keyingi ekzistensial tafakkurning muhim tamoyillaridan biriga aylandi [5, 45–67-b.].

Martin Heidegger inson mavjudligini borliq muammosi bilan bog'lab, insonning kundalik hayotdagi noautentik holati, xavotir, tashlanganlik va o'z mavjudligini anglash jarayonlarini tahlil qiladi. Uning qarashlarida insonning haqiqiy mavjudligini anglash chegaraviy holatlar, ayniqsa, o'lim va xavotir bilan yuzlashish orqali kuchayadi. Bu fikrlar badiiy qahramonning ekzistensial inqirozini uning ichki dunyosi va o'zligini anglash jarayoni bilan bog'liq holda tadqiq etish imkonini beradi [3, 67–90-b.].

Jean-Paul Sartre ekzistensial tafakkurda erkinlik, tanlov va mas'uliyat masalalariga alohida e'tibor beradi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, insonning mohiyati oldindan belgilab qo'yilmaydi, balki u o'z harakatlari va qarorlari orqali shakllanadi. Shu sababli tanlov badiiy qahramonning oddiy qarori emas, balki uning o'zligini yaratish jarayonini belgilovchi ekzistensial hodisa sifatida namoyon bo'ladi [7, 437–489-b.]. Inson erkinligining mas'uliyat bilan uzviy bog'liqligi esa ekzistensial konfliktning ichki mohiyatini ochishga xizmat qiladi [8, 22–35-b.].

Albert Camus qarashlarida ekzistensial inqiroz insonning hayotdan ma'no izlash ehtiyoji bilan olamning unga tayyor va mutlaq ma'no bermasligi o'rtasidagi ziddiyat orqali izohlanadi. Absurd tushunchasi aynan shu qarama-qarshilikni ifodalaydi. Bunday vaziyatda insonning mavjudlikka munosabati, hayotni davom ettirish va o'z pozitsiyasini belgilash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi [1, 28–40-b.]. Shu

jihatdan absurd ekzistensial nasrda qahramonning ichki inqirozini tashkil etuvchi asosiy falsafiy kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Franz Kafka ijodida insonning jamiyat, oila va mavjud ijtimoiy munosabatlardan begonalashuvi alohida badiiy mazmun kasb etadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'zlari uchun tushunarsiz va nazorat qilib bo'lmaydigan vaziyatga tushib qoladi. Bunday holat shaxsning ijtimoiy mavqei, o'zligi va insoniy munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi [4, 89–115-b.]. Shu sababli Kafka nasri ekzistensial begonalashuvning poetik ifodasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

John Macquarrie ekzistensializmning asosiy tushunchalarini tizimlashtirar ekan, mavjudlik, erkinlik, mas'uliyat, xavotir va tanlovning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Uning yondashuvida ekzistensial muammo insonning tashqi sharoitidan ko'ra, ushbu sharoitga qanday munosabat bildirishi bilan chambarchas bog'liq. Bu nazariy qarash badiiy qahramonning tashqi voqealardan ko'ra ichki qarorlarini markazga qo'yib tahlil qilish imkonini beradi [6, 14–38-b.].

Roland Barthesning badiiy yozuv va uslub haqidagi qarashlari ekzistensial nasr poetikasini o'rganishda ham muayyan metodologik ahamiyatga ega. Neytral, hissiy jihatdan cheklangan va ortiqcha izohlardan xoli bayon shakli qahramonning ruhiy masofalanishi hamda begonalashuv holatini ifodalashga xizmat qilishi mumkin [9, 71–89-b.].

O'zbek adabiyotshunosligida N. Jo'rayev ekzistensializmning adabiy-estetik xususiyatlarini insonning yolg'izligi, ichki ziddiyatlari va mavjudlik muammolari bilan bog'liq holda tahlil qiladi [11, 45–52-b.]. M. Qo'shjonov XX asr adabiyotida inson psixologiyasi va badiiy konflikt munosabatiga e'tibor qaratib, qahramonning ichki kechinmalari badiiy obrazni shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [12, 74–96-b.]. N. Eshonqul qarashlarida esa insonning ichki dunyosi, o'zlikni izlash va ruhiy kechinmalarni badiiy ifodalash masalalari muhim o'rin egallaydi [10, 31–48-b.].

Shunday qilib, mavjud ilmiy qarashlarni umimlashtirganda, ekzistensial inqiroz insonning mavjudlik ma'nosi, o'zligi va hayotiy mezonlari bilan yuzlashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab ruhiy-falsafiy holat sifatida namoyon bo'ladi. Tanlov esa ushbu inqiroz sharoitida qahramonning o'z munosabati va mas'uliyatini belgilovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur nazariy qarashlar Yevropa badiiy nasrida ekzistensial inqiroz va tanlov muammosining falsafiy mazmuni bilan bir qatorda, uning obraz, konflikt va narrativ shakllardagi poetik ifodasini tadqiq etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tipologik va germeneytik yondashuvlardan foydalanildi. Ekzistensial inqiroz va tanlov muammosi Kierkegaard, Heidegger, Sartre hamda Camusning nazariy qarashlari asosida tahlil qilinib, ularning Yevropa badiiy nasridagi poetik ifodasi qiyoslandi. Badiiy matnlardagi qahramon ruhiyati, begonalashuv, absurd, erkinlik va mas'uliyat masalalarini ochishda psixologik tahlil hamda narratologik yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil jarayonida obraz, konflikt, ichki monolog va subyektiv bayon kabi poetik unsurlarning ekzistensial mazmuni shakllantirishdagi vazifasiga e'tibor qaratildi.

Natijalar

Adabiyotshunoslikda ekzistensial poetikani to'liq anglash uchun uning teologik va falsafiy ildizlariga murojaat qilish talab etiladi. Bu borada daniyalik mutafakkir Soren Kierkegaardning qarashlari muhim o'rin tutadi. Kiyerkegor o'zining "Qorquv va dirillash" hamda "O'limga olib boruvchi kasallik" asarlarida inson psixikasidagi "umidsizlik" va "xavotir" tushunchalarini ekzistensial inqirozning ilk kurtaklari sifatida talqin etadi. Uning ta'kidlashicha, inson ma'naviy rivojlanishning uch bosqichini — estetik, axloqiy va diniy bosqichlarni bosib o'tadi. Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish faqatgina chukur ekzistensial inqiroz va "sakrash" sifatidagi jasoratli tanlov orqali amalga oshadi.

XX asrga kelib, Martin Xaydigger o'zining "Borliq va vaqt" fundamental zahmatida "Dasein" (bu yerda-borliq / insoniy mavjudlik)

tushunchasini muomalaga kiritdi. Xaydigger ta'rificha, inson dunyoga "otilgan" mavjudlikdir. U tashqi ijtimoiy qo'llar va kundalik ma'nosiz yumushlar ichida o'zining asl o'zligini yo'qotadi ("soxta mavjudlik"). Inson faqatgina o'lim bilan yuzma-yuz kelganda yoki buyuk vaqtinchalik xavotirni his qilgandagina o'zining chinakam mavjudligini anglaydi.

Fransuz ekzistensializmi vakillari Jean-Paul Sartre va Albert Kamus esa bu nazariyalarni adabiyot maydoniga olib kirdi va uni badiiy konseptual shaklga keltirdi. Sartre o'zining "Borliq va yo'qlik" asarida mashhur axromatik formulani ilgari surdi: "L'existence précède l'essence" — "Mavjudlik mohiyatdan ustundir". Bu shuni anglatadiki, inson dastlab dunyoga keladi, mavjud bo'ladi va faqat shundan keyin o'z qilmishlari, qarorlari hamda tanlovlari orqali o'z "mohiyati"ni yaratadi. Sartre fikricha, inson "erkinlikka hukm qilingan". Erkinlik esa o'z navbatida cheksiz mas'uliyatni va ruhiy og'riqni keltirib chiqaradi.

Albert Kamus esa "Sizif haqida afsona" asarida ekzistensial inqirozni absurd tushunchasi orqali asoslaydi. Absurd – insonning dunyodan mantiq, tartib va ma'no izlashga bo'lgan ichki ehtiyoji hamda bu ehtiyojga nisbatan koinotning ko'rsatgan sovuq sukunati o'rtasidagi toqatsiz ziddiyatdir. Kamyu bo'yicha, ushbu absurdni anglagan qahramon oldida uchta tanlov duradi: 1) Fizik suitsid (o'zini o'ldirish – bu absurdga taslim bo'lish); 2) Falsafiy suitsid (diniy yoki mafkuraviy illuziyalarga berilish); 3) Absurdni qabul qilish va isyon ko'tarish (chinakam ekzistensial yashash).

Yevropa badiiy nasrida ekzistensial inqiroz qahramonning ruhiy evolyutsiyasi yoki inqirozi orqali shakllanadi. Klassik realizmdagi konflikt ko'pincha "qahramon va jamiyat", "yaxshilik va yomonlik" o'rtasida kechgan bo'lsa, ekzistensial nasrda konflikt insonning o'z "Meni" va "Ma'nosizlik" (Yo'qlik) o'rtasida kechadi.

Qahramon dastlab jamiyat belgilab bergan qoidalar va ijtimoiy rollar ichida yashaydi. Biroq muayyan turtki (kutilmagan fojia, tasodifiy voqea yoki ichki charchoq) natijasida u atrofidagilarga va o'z hayotiga begona ko'z bilan qaray boshlaydi. Franz Kafkaning "Evrilish" qissasidagi Gregor Zamsa obrazida bu holat yaqqol ko'rinadi. Gregorning tongda ulkan xasharotga aylanib uyg'onishi shunchaki fantastik detal emas, balki uning yillar davomida oilasi va jamiyatdagi o'rni nisbatan begonalashuvining moddiylashgan, fojiaiy ekzistensial ko'rinishidir. U jamiyat uchun faqat moddiy manba sifatida kerak bo'lgan, o'zining haqiqiy mavjudligini esa yo'qotgan edi.

Inqirozning eng yuqori nuqtasida qahramon atrofidagi barcha narsalarning sababsiz va mantiqsiz ekanini his qiladi. Jean-Paul Sartrening "Nafarat" (Nausea) romanidagi Antuan Rokanten obrazida ushbu holat jismoniy va ruhiy ko'ngil aynish "Nausea" shaklida namoyon bo'ladi. Rokanten bog'da o'tirib, daraxt ildiziga qaraganida, moddiy borliqning sababsiz, keraksiz va ortiqcha ekanini anglaydi. Bu anglash uning barcha ma'naviy tayanchlarini yo'qqa chiqaradi va uni mutlaq inqirozga yetaklaydi. Albert Kamusning "Begona" romanidagi Merso obrazi esa absurd va begonalashuvning eng yorqin timsolidir. Mersoning onasining o'limiga nisbatan ko'rsatgan sovuqqonligi, jazirama quyosh ostida tasodifan arabni o'ldirib qo'yishi va suddagi xatti-harakatlari jamiyat tomonidan "axloqsizlik" deb baholanadi. Vaholanki, Merso soxta sotsial ko'nikmalardan voz kechgan, absurdni qabul qilgan va o'z ichki haqiqatiga sodiq qolgan yagona chinakam qahramondir.

Ekzistensial inqiroz insonni harakatsizlikka emas, balki tanlov zaruriyatiga olib keladi. Yevropa adabiyotshunosligida tanlov muammosi asarning kulminatsion hamda g'oyaviy po'ydevori hisoblanadi. Klassik tragediyalarda tanlov ko'pincha taqdir (fatum) yoki ilohiy amr va qahramon irodasi o'rtasida kechgan bo'lsa, ekzistensial nasrda tanlov ob'ektiv tayanchsiz amalga oshiriladi. Qahramonga yo'l ko'rsatuvchi tayyor ma'naviy kompas, jamiyat axloqi yoki ilohiy ko'rsatma yo'q. U mutlaq yolg'izlikda, faqat o'z tavakkali va mas'uliyati bilan qaror qabul qiladi.

1-jadval.

Klassik va ekzistensial badiiy nasrda tanlov muammosining qiyosiy tavsifi

Ko'rsatkich	Klassik badiiy nasrdagi tanlov	Ekzistensial nasrdagi tanlov
Kriteriy / Asos	Obyektiv axloqiy mezonlar, diniy/ijtimoiy qonunlar.	Obyektiv mezonlarning yo'qligi, subyektiv iroda.
Konflikt tabiati	Yaxshilik va yomonlik, burch va ehtiros o'rtasida.	Erkinlik va mas'uliyat, chinakam va soxta mavjudlik o'rtasida.
Mo'ljallangan natija	Adolatning qaror topishi yoki fojiaiy xato.	O'z shaxsiyatining ma'nosini va taqdirini yaratish.
Natija mas'uliyati	Taqdir, jamiyat yoki ilohiy kuchlar bilan bo'linaladi.	To'liq va muqarrar ravishda faqat qahramonning o'ziga yuklanadi.

Jean-Paul Sartrening "Devor" hikoyasida tanlov dramatzimi yuksak mahorat bilan ko'rsatilgan. Fuqarolar urushi davrida o'limga hukm qilingan Pablo Ibbieta o'z safdoshi Ramon Grisning yashiringan joyini

aytish yoki otib tashlanish tanlovi oldida qoladi. O'lim yoqasida turgan Pablo uchun barcha hayotiy qadriyatlar o'z ma'nosini yo'qotadi. U askarlarni chalg'itish uchun Grisni qabristonda yashiringan deb

kutilmagan yolg'on gapiradi. Biroq tasodifiy qarangi, Gris haqiqatan ham do'stlari bilan urushib, qabristonga yashiringan edi. Bu o'rinda Sartre tanlovning inson irodasidan tashqari turuvchi absurd va fojiaiy oqibatlarini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, Albert Kamusning "Vabo" romanida shifokor Bernar Riyo va uning safdoshlari shahmi qamrab olgan o'latga qarshi kurashda har kuni tanlov qilishadi. Ular uchun bu kurash g'alaba keltirmasligini va o'lim muqarrar ekanini bilsalar-da, vabo bilan olishishni o'zlarining insoniy mas'uliyati va ma'naviy tanlovi deb bilishadi. Bu yerda tanlov – absurdga nisbatan ko'tarilgan eng oliy isyondir.

Yevropa ekzistensial nasri inson ruhiyatining murakkab va inqirozli holatlarini ochib berish uchun an'anaviy hikoya qilish (narrativ) shakllarini tubdan o'zgartirdi:

1. Ichki monolog va "Anglash oqimi": Obyektiv, barchani biluvchi uchinchi shaxs hikoyasidan voz kechilib, birinchi shaxs ("Men") tilidan aytiladigan narrativga o'tildi. Bu usul o'quvchini qahramonning ichki iztiroblari, xavotirlari va psixologik inqiroziga bevosita sherik qiladi (masalan, James Joys, Virjiniya Vulf, Albert Kamus nasrida).

2. Chegara vaziyatlar: Karl Jaspers ilgari surgan bu tushuncha badiiy matn syujetining dinamik markaziga aylandi. Qahramon o'lim, og'ir kasallik, xiyonat, urush kabi ekstremal holatlarga tushiriladi. Aynan shu nuqtada uning soxta niqoblari tushib ketadi va haqiqiy ekzistensial tanlov sodir bo'ladi.

3. Neytral va sovuqqon uslub: Roland Barzes ta'riflagan bu uslub, ayniqsa, Kamyuning "Begona" asarida qo'llanilgan. Uslubdagi bo'yoqsizlik, ortiqcha emotsiyalardan xolilik va sovuqqonlik dunyoning befarqligi hamda Mersoning ichki begonalashuvini poetik jihatdan ta'minlaydi.

Muhokama

Ekzistensial inqiroz va tanlov muammosining Yevropa badiiy nasridagi ifodasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur hodisalar faqat falsafiy g'oyalarning badiiy matnga ko'chirilishi bilan izohlanmaydi. Ular, avvalo, qahramonning mavjud vaziyatni idrok etishi, o'z hayotiy tajribasiga munosabat bildirishi va qaror qabul qilish jarayonida namoyon bo'ladigan murakkab badiiy-psixologik holatdir. Shu sababli ekzistensial mazmundagi nasrda voqeaning tashqi rivojidan ko'ra, uning qahramon ongida qanday aks etishi muhimroq ahamiyat kasb etadi. Voqea ko'pincha ichki o'zgarishga sabab bo'luvchi vosita vazifasini bajaradi, asosiy dramatism esa qahramonning o'z-o'zi bilan kechadigan kurashida yuzaga keladi.

Tahlillar qahramonning ekzistensial inqirozi odatda mavjud hayot tartibining buzilishi bilan boshlanishini ko'rsatadi. Biroq bu buzilish har doim ham katta ijtimoiy yoki tarixiy hodisa shaklida namoyon bo'lmaydi. Ba'zan oddiy kundalik vaziyat, yaqin insondan ayrilish, kutilmagan hodisa yoki odatiy hayot tarzining izdan chiqishi qahramonning ilgari tabiiy deb qabul qilgan qadriyatlarini shubha ostiga qo'yadi. Natijada u o'zining jamiyatdagi mavqei, boshqa insonlar bilan munosabati va shaxsiy hayotining mazmunini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Demak, ekzistensial inqirozning badiiy mexanizmi tashqi voqea bilan ichki anglash jarayonining o'zaro ta'siriga asoslanadi.

Bu jihat Franz Kafka nasrida o'ziga xos shaklda ko'rinadi. Uning qahramonlari ko'pincha inson uchun tushunarsiz, mantiqiy izohga bo'ysunmaydigan vaziyatlarga duch keladi. Bunday vaziyatning ahamiyati voqeaning g'ayrioddiyliklari emas, balki uning qahramonning mavjud ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarini qayta namoyon etishida ko'rinadi. Shaxsning jamiyatdagi vazifasi, oiladagi mavqei va inson sifatidagi qadri o'rtasidagi farq ochila boradi. Shu tariqa begonalashuv nafaqat tashqi muhitdan uzoqlashish, balki insonning o'zligini anglashdagi uzilish sifatida ham namoyon bo'ladi.

Albert Camus nasrida esa mazkur jarayon boshqa poetik yo'sinda tashkil etiladi. Bu yerda qahramonning ichki holati ko'pincha voqealarga nisbatan hissiy masofaning kuchayishi orqali ifodalanadi. Mersoning atrofdagi hodisalarga odatiy ijtimoiy mezonlar asosida munosabat bildirmasligi uning jamiyatdan ajralib turishini yanada aniq ko'rsatadi. Biroq qahramonni faqat "hissiz" yoki "befarq" shaxs sifatida baholash masalaning mohiyatini toraytiradi. Uning xatti-harakatlari orqali jamiyat tomonidan belgilangan odatiy munosabatlar bilan shaxsning ichki tajribasi o'rtasidagi tafovut ochiladi. Shu jihatdan Kamyu poetikasida ekzistensial muammo axloqiy hukmdan ko'ra inson va mavjudlik o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish vositasiga aylanadi.

Tanlov muammosi ham aynan shu ichki nomuvofiqlik kuchaygan paytda murakkablashadi. Ekzistensial nasr qahramoni ko'pincha tayyor va mutlaq to'g'ri qaror mavjud bo'lmagan vaziyatda qoladi. Uning oldida bir nechta imkoniyat mavjud bo'lishi mumkin, biroq ularning har biri muayyan oqibati va javobgarlikni talab qiladi. Shu sababli tanlovning dramatismi qarorning o'zidan ko'ra, unga olib kelgan ichki jarayonda namoyon bo'ladi. Qahramon o'z qarorini boshqa shaxsga, mavjud tartibga yoki tashqi kuchga to'liq yuklay olmaydi. Qaror uning shaxsiy

pozitsiyasini ochib beradi va shu orqali obrazning ichki mohiyatini belgilaydi.

Sartre qarashlari bilan badiiy materialni qiyoslash tanlovning yana bir muhim xususiyatini ko'rsatadi. Erkinlik ekzistensial nasrda imkoniyatlarning cheksizligi sifatida emas, balki tanlov qilish zaruriyati sifatida namoyon bo'ladi. Qahramon qaror qabul qilmaslikka harakat qilgan taqdirda ham, uning harakatsizligi ma'lum bir pozitsiyaga aylanadi. Shuning uchun ekzistensial qahramonning ichki ikkilanishi ham badiiy jihatdan faol jarayon hisoblanadi. U o'z qarorining oqibatlarini oldindan to'liq bilmasa-da, baribir tanlashga majbur bo'ladi. Bu holat nasrdagi psixologik konfliktni kuchaytirib, qahramonning ichki dunyosini syujetning asosiy harakatlantiruvchi omiliga aylantiradi.

Sartrening Pablo Ibbieta obrazida tanlovning kutilmagan oqibatlarini ayniqsa yorqin ko'rinadi. Qahramon muayyan vaziyatdan chiqish uchun aytgan gapini uning dastlabki niyatidan butunlay boshqa natijaga olib keladi. Bu holat ekzistensial tanlovning doimo nazorat qilinadigan va oldindan hisoblab chiqiladigan jarayon emasligini ko'rsatadi. Inson qaror qabul qiladi, biroq qarorning barcha oqibatlarini boshqara olmaydi. Shunday qilib, tanlov va tasodif o'rtasidagi munosabat ekzistensial nasrda fojiaiylikni yuzaga keltiruvchi muhim omillardan biriga aylanadi.

Camusning "Vabo" romanidagi voqealar esa tanlovning individual chegaradan chiqib, insonlararo mas'uliyat shakliga aylanishini ko'rsatadi. Shifokor Riyo va uning hamrohlarini vaziyatning yakuniy natijasini oldindan kafolatlay olmasalar-da, mavjud sharoitda harakat qilishni tanlaydilar. Bu holatda tanlov ma'lum bir mukammal natijaga erishish vositasi emas, balki insonning boshqa insonlar oldidagi munosabatini namoyon etuvchi axloqiy pozitsiyaga aylanadi. Demak, ekzistensial nasrda tanlov faqat "men kimman?" degan savolga emas, balki "boshqalar oldida qanday munosabatni egallayman?" degan savolga ham olib keladi.

Tadqiq etilgan materiallar narrativ shaklining o'zgarishi ham ekzistensial mazmunni ifodalash bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Qahramonning ichki holati markazga chiqqani sari an'anaviy voqebandlikning imkoniyatlari yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli ichki monolog, ong oqimi, xotira fragmentlari, vaqtning subyektiv tashkil etilishi va qisqa psixologik tasvirlar faol qo'llanadi. Bunday usullar voqeani tashqi kuzatuvchi nuqtayi nazaridan emas, qahramonning idroki orqali ko'rsatish imkonini beradi. Natijada badiiy vaqt ham oddiy xronologik ketma-ketlikdan farq qiladi: bir lahza uzoq psixologik jarayon sifatida kengayishi, uzoq vaqt esa qisqa xotira yoki tasavvur orqali berilishi mumkin.

Ichki monologning vazifasi ham faqat qahramonning fikrlarini bayon qilish bilan cheklanmaydi. U qahramonning aytilgan va aytilmagan fikrlari, tashqi xatti-harakatlari bilan ichki kechinmalari o'rtasidagi farqni ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ekzistensial nasrda obrazni tushunish uchun uning nima qilganidan tashqari, nima haqida o'ylagani va o'z harakatiga qanday munosabat bildirgani ham muhimdir. Qahramonning ichki nutqi ba'zan tashqi voqeadan kuchliroq dramatik ta'sir hosil qiladi.

Ekzistensial poetikada ramz va predmetlarning vazifasi ham o'ziga xosdir. Oddiy predmet yoki makon qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi badiiy belgiga aylanishi mumkin. Kafkadagi o'zgarish, Sartrdagi predmetning mavjudligi bilan bog'liq noqulaylik yoki Kamyudagi quyosh va tabiat tasvirlari shunchaki dekorativ detal emas, balki qahramonning borliqni idrok etish usulini shakllantiruvchi poetik vositalardir. Bunday tasvirlarda tashqi muhit va ichki holat o'rtasidagi chegaralar nisbatan zaiflashadi.

Shuningdek, ekzistensial nasrda yakunning an'anaviy "yechim" tamoyiliga bo'ysunmasligi ham muhim poetik xususiyat sifatida ko'rinadi. Qahramonning ichki muammosi har doim ham yakuniy javob bilan tugamaydi. Ayrim asarlarda u o'z holatini anglaydi, ayrimlarida esa noaniqlik saqlanib qoladi. Bunday ochiq yoki noaniq yakun o'quvchini qahramonning qarorini tayyor xulosa sifatida emas, balki davom etuvchi ma'naviy jarayon sifatida qabul qilishga undaydi. Shu sababli ekzistensial nasrning badiiy ta'siri ko'pincha voqeaning qanday tugaganidan ko'ra, o'quvchini qanday savol qarshisida qoldirishi bilan belgilanadi.

Xulosa

XX asr Yevropa adabiyotshunosligi va badiiy amaliyotda ekzistensial inqiroz hamda tanlov muammosining tadqiq etilishi insonshunoslik sohasi uchun ulkan burilish bo'ldi. Yevropa ekzistensial nasri insonni tayyor ijtimoiy qoliqlar ichida emas, balki o'zligini doimiy ravishda izlayotgan, ma'nosi dunyoda o'z hayotiga o'zi ma'no bag'ishlashga majbur bo'lgan murakkab subyekt sifatida talqin qildi.

Inqirozning ontologik xarakteri: Badiiy nasrdagi ekzistensial inqiroz shunchaki vaqtinchalik psixologik tushkunlik emas, balki shaxsiyatning o'z mavjudligini qayta anglash va o'zligini shakllantirish uchun zarur bo'lgan chegaraviy bosqichdir.

Tanlovning o'zlikni yaratishdagi o'rni: Ekzistensial adabiyotda tanlov inson erkinligining oily ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Qahramon tayyor

axloqiy doizaga tayanmagan holda, har bir qarori orqali o' me'yoridagi ma'naviy qiyofasini va taqdirini o'zi yaratadi.

Poetik novatorlik: Ekzistensial inqiroz va tanlov dinamikasini aks ettirish Yevropa nasrida yangi narrativ usullar — vaqt va makonning subyektivlashuvi, ichki monolog, "anglash oqimi" va sovuqqon hikoya qilish texnikasining rivojlanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Camus, A. (1955). *The Myth of Sisyphus and Other Essays*. Translated by Justin O'Brien. New York: Vintage Books. — 212 p.
2. Camus, A. (1989). *The Stranger*. Translated by Matthew Ward. New York: Vintage International. — 123 p.
3. Heidegger, M. (1962). *Being and Time*. Translated by John Macquarrie & Edward Robinson. London: SCM Press. — 589 p.
4. Kafka, F. (2014). *The Metamorphosis and Other Stories*. London: Penguin Classics. — 304 p.
5. Kierkegaard, S. (1983). *Fear and Trembling / Repetition*. Edited and translated by Howard V. Hong and Edna H. Hong. Princeton: Princeton University Press. — 390 p.
6. Macquarrie, J. (1972). *Existentialism*. New York: Penguin Books. — 304 p.

Yevropa adabiyotida ishlab chiqilgan ekzistensial poetika va nazariy tamoyillar keyinchalik jahon adabiyoti, jumladan, XX asr oxiri va XXI asr boshi o'zbek nasrida (Choriyev, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam asarlarida) ham inson ruhiyatini teran va tahliliy aks ettirish uchun muhim metodologik manba bo'lib xizmat qildi.

7. Sartre, J.-P. (1956). *Being and Nothingness: A Phenomenological Essay on Ontology*. Translated by Hazel E. Barnes. New York: Philosophical Library. — 722 p.
8. Sartre, J.-P. (2007). *Existentialism is a Humanism*. Translated by Carol Macomber. New Haven: Yale University Press. — 108 p.
9. Bart, R. (1989). *Nol darajali yozuv (Le Degré zéro de l'écriture)*. Moskva: Progress. — 168 b.
10. Eshonqul, N. (2018). *Mendagi Men: Badiiy va falsafiy esselar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. — 256 b.
11. Jo'rayev, N. (2018). Jahon adabiyotida ekzistensializm va uning poetik ko'rinishlari. *Adabiyotshunoslik masalalari*, №2, 45-52-b.
12. Qo'shjonov, M. (2000). *XX asr adabiyoti va inson psixologiyasi*. Toshkent: Fan. — 198 b.